

## ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING MILLAT RIVOJIDAGI O‘RNI

*Abdullayeva Mushtariy*

*Xalqaro islom akademiyasi din psixologiya  
yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Tarixdan ma‘lumki, diniy bag‘rikenglik tushunchasi juda keng muhokama qilinadi. Oxirgi yillarda butun dunyoda bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlarning aksariyatining sababi diniy bag‘rikenglikning yetishmasligi yoki umuman mavjud emasligi ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu ilmiy maqolada diniy bag‘rikenglik tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish bilan bir qatorda zamonaviy sharaoida diniy mbag‘rikenglikning ahamiyati va uning tadqiqotlar asosida isbot topayotganligi ilmiy faktlar bilan batafsil ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar.** Bag‘rikenglik, diniy bag‘rikenglik, axloq, inson huquqlari, erkinlik.

**Kirish.** Diniy bag‘rikenglik har zamonda va makonda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatning rivoji va u yerda yashovchi xalqning baxtli ekanligi avallo davlatning tinchligida ko‘rinadi. O‘zbekistonda ham bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi bejizga emas. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari fikrimizning yaqqol dalilidir:** “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentalitetining asosini tashkil etadi”.<sup>1</sup> Darhaqiqat, bizning bag‘rikenglik xususiyatimiz ajdodlarimizdan meros bo‘lib o‘tgan. Bunga tarixdan misollar juda ko‘pki, millatchilik, irqchilik holatlari qadimdan o‘zbek millatiga begona. Diniy bag‘rikenglik tushunchasiga batafsil to‘xtalishdan oldin bag‘rikenglik haqida qisqacha to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Bag‘rikenglik tushunchasini izohlash harakatlari qadimdan mavjud. Masalan, tarixchi Lyutsiy Dion Rim imperiyasida dinlararo bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta‘kidlab o‘tgan<sup>2</sup>. Chunki davlatni siyosatchilariga aholi o‘rtasidagi nizolar iqtisodiyot va rivojlanishga salbiy ta‘sir o‘tkazishi ma‘lum bo‘lgan. Tarixiy adabiyotlarda aynan diniy bag‘rikenglik so‘zi ishlatilmagan bo‘lsada, har zamonda

<sup>1</sup> <https://iiau.uz/oz/news/2019>

<sup>2</sup> Rowe, C.K. *World Upside Down: Reading Acts in the Graeco-Roman Age*. Oxford University Press, 2011, 165.

jamiyatda insonlar o‘zaro tinch-totuv yashashlari muhim ahamiyat kasb etishi qayta-qayta o‘z isboti o‘laroq ta’kidlangan. Fikrimizning isboti sifatida salb yurishlarini misol keltirishimiz o‘rinli. Ushbu urush bir necha yil emas balki asrlar davom etgan va unda har ikki tomondan katta yo‘qotish va zararlar ko‘ringan. Bunday mazmundagi urishlar afsuski, hozirgi kungacha turli kelishmovchiliklar ko‘rinishida davom etib kelmoqda. Masalaning yana bir tomoniga to‘xtalish kerakki, tarixchi Aleksandr Volshmanning ta’kidlashicha, “tolerantlik” so‘zining zamonaviy tushunchasi uning tarixiy ma’nosidan biroz farq qiladi<sup>3</sup>. Hozirgi kunda ushbu so‘z ko‘roq inson huquqlari erkinligi timsolida ishlatiladi. Bag‘rikenglik bu insonlarning fikrlari, qarashlari hamda xulq-atvoriga nisbatan o‘zining qarshi bo‘lsada, uni qabul qilishdir. Diniy bag‘rikenglik esa turli dinlar, e‘tiqodlar yoki e‘tiqodlarga mansub shaxslar yoki guruhlarini qabul qilish va ular bilan tinch-totuv yashash qobiliyati hisoblanadi. Bu jamiyatda odamlarning hamjihatlikda yashashining hal qiluvchi jihati, millat taraqqiyotining muhim vositasidir. Diniy bag‘rikenglik boshqacha diniy qarashlar, axloqlar va turmush tarziga nisbatan murosa qilib yashashga odatlanishdir. O‘zbekiston xalqlarining diniy bag‘rikenglik an‘analari o‘zining ham milliy, ham umumbashariy mohiyati bilan purviqordir. Mamlakatimizda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar diniy bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangandir.<sup>4</sup> Shu o‘rinda diniy bag‘rikenglik xususiyatlari aks etgan bir insonning o‘z fikr va qarashlarini misol sifatida keltirsak, “Meni musulmon hamkasblarim kuniga bir necha marotaba ibodat qilishadi. Ular ibodat uchun tashqariga chiqishganda men ularning qo‘ng‘iroqlariga javob beraman va buni ular uchun to‘g‘ri deb bilaman. Meni yana bir toifa hamkasblarim bor. Ular orada chekish uchun tashqariga chiqishadi, buni shaxsan oqlamasamda ularni xatti-harakatini ham qabul qilaman”.

Diniy bag‘rikenglik haqida gap ketar ekan, uning jamiyat hayotidagi o‘rni bo‘yicha ham fikr-mulohazalarni berib o‘tsak. Diniy hamda madaniyalararo xilma xillikdan qochib bo‘lmaydi. Har bir davlat mavjudki, unda xilma-xil millatlar, turli g‘oya egalari va albatta, turli din vakillari bor. Bag‘rikenglik mavjud bo‘lgan davlatlarda insonlar o‘zlarini xavfsiz his qiladilar, hamda qachonlardir, dinlari tufayli tahqirlanish hamda jamiyatdan ajratilib qo‘yilishlari mumkinligidan qo‘rqmay yashaydilar. Diniy bag‘rikenglik iqtisodiy va madaniy o‘shishni, ta’limni, birlikni va milliy hamjihatlikni osonlashtiradigan tinch muhitni rivojlantiradi.<sup>5</sup> Tajribalardan kuzatadigan bo‘lsak ham o‘zaro nizolar bir-birini tushunmaslik va qabul qilmaslikdan

<sup>3</sup> Oberdiek, Hans, *Tolerance: between forbearance and acceptance* (Lanham, Maryland: Rowman and Littlefield, 2001)

<sup>4</sup> Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. *Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at*. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 — 480 bet.

<sup>5</sup> Ajadi, D. T., & Fagbemi, O. T. (2019). Religious tolerance and national development in Nigeria: Issues, challenges and prospects. *International Journal of Humanities and Social Science Research*, 1(1), 23-33

kelib chiqadi. Oqibatda jamiyatda diniy bag'rikenglikni aksi bo'lgan radikalizm, aqidaparastlik kabi g'oyalar ko'payadi va ular millatni ichidan yemirib boradi. Hozirgi kunda tinch-totuv yashayotgan xalqlarning parokandalikka yuz tutishiga aynan diniy bag'rikenglik jamiyatda mavjud emasligi sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy psixologiyadan bizga ma'lumki, doimiy ravishda nizolarga uchrayveradigan jamiyatning davomiyligi uzoqqa bormaydi. Tolerantlik birdamlik va garmoniyani ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanishni asosiy omili sifatida xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Diniy bag'rikenglik, savdo, investitsiya hamda turizmni o'ziga jalb qiladi, ular esa iqtisodiy rivojlanishdagi muhim masalalar hisoblanadi.<sup>6</sup> Bu holatni davlatlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Qaysi davlatda irqchilik, millatchilik qo'zg'olonlari avj olgan bo'lsa, o'sha davlat iqtisodiy muammolar girdobida yoki aksincha holat. Mantiqan tafakkur qilinganda ham urush yoki doimiy nizo bo'laveradigan mamlakatga tashqi tomondan hech qanday qiziqish bo'lmaydi yoki hech kim mablag' kiritib o'zining molini xatarga qo'ymaydi. Yuqorida biz diniy bag'rikenglikning jamiyatga bo'lgan ijobiy xususiyatlari haqida mulohazalar bilan bo'lishdik. Shu o'rinda diniy bag'rikenglik oldini olishi mumkin bo'lgan jiddiy muammolarni keltirib o'tsak, jumladan, zo'ravonliklarga olib keluvchi o'zaro nizolar oldini olinadi. Bundan tashqari diniy bag'rikenglik bo'lmagan joyda insonlar o'zaro tajriba va bilimlarini almashishga ikkilanadi, natijada ilmiy rivojlanish bo'lmaydiva paydo bo'lgan tuhunmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal qila oladigan qatlam shakllanmaydi va hokazo.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, diniy bag'rikenglik nafaqat davlat va jamiyatning rivojlanishiga balki insonning shaxs sifatida shakllanishiga katta yordam beradi. Chunki erkinlik va ozodlikni his qilmagan inson tafakkurashda, fikrlashda, yangi g'oyalar haqida o'ylashda qiyinchiliklarga duch keladi. Oqibatda u o'zini va atrofdagilarning ehtiyojini tushunishda, anglashda hamda jamiyatda shaxslararo munosabatlarda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Shuning uchun ham biz diniy bag'rikenglikni o'zida shakllantirgan shaxslarni yetishitirishimiz va ayniqsa yoshlar o'rtasida diniy bag'rikenklikni rivojlantirishimiz zarur. Bu davlat va jamiyatning tinch-totuv hamda farovon hayotini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. *Dinshunoslik. Qomusiy lug'at*. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 — 480 bet.
2. Батурина О.С. Формирование культуры толерантности студенческой молодежи. - Казань: ТГПУ, 2008. - 114 с.
3. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. -М., 2007. - 367 с.

<sup>6</sup> Mukhtar, N. (2018). Religious tolerance and interfaith harmony: The way forward for national integration. *Journal of Educational and Social Research*, 8(4), 23-2

4. Трубина Л. Толерантная и интоле-рантная личность: основные черты и отличия // Воспитание школьников. 2003. №3. С. 33-35.
5. Rowe, С.К. *World Upside Down: Reading Acts in the Graeco-Roman Age*. Oxford University Press, 2011, 165.
6. Oberdiek, Hans, *Tolerance: between forbearance and acceptance* (Lanham, Maryland: Rowman and Littlefield, 2001 p.
7. Ajadi, D. T., & Fagbemi, O. T. (2019). Religious tolerance and national development in Nigeria: Issues, challenges and prospects. *International Journal of Humanities and Social Science, Research*, 1(1), 23-33
8. Mukhtar, N. (2018). Religious tolerance and interfaith harmony: The way forward for national integration. *Journal of Educational and Social Research*, 8(4), 23-29.
9. <https://iiaw.uz/oz/news/2019>
10. <https://religions.uz/news/detail?id=453>